

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING MUAYYAN YASHASH JOYIGA EGA BO'LMAGAN SHAXSLAR BILAN ISHLASH FAOLIYATI

*Ochilov Obodbek Oybek O'g'li
O'zbekiston respublikasi Ichki ishlar
vazirligi akademiyasi kursanti*

ANNOTATSIYA

Ushbu mavzuning dolzarbligi, profilaktika inspektorining muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslar bilan ishlash faoliyati tushunchasi, muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslar turlari, profilaktika inspektorining muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslar bilan ishlash faoliyati sohasodagi chora-tadbirlarini tashkil etish tartibi, bugungi kundagi holati va profilaktika inspektorining muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslar bilan ishlash faoliyatini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari hisoblanadi.

Tayanch so'zlar: muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxs tushunchasi, reabilitatsiya markazi.

ANNONATION

Актуальность данной темы, понятие работы инспектора по профилактике с лицами, не имеющими определенного места жительства, виды лиц, не имеющие определенного места жительства, порядок организации мероприятий в сфере работы по профилактике. инспектора по профилактике с лицами, не имеющими определенного места жительства, сегодняшняя ситуация и особенности работы инспектора по профилактике с лицами, не имеющими определенного места жительства.

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lgan kiritganidan so'ng sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar hozirgi kunga kelib yangi bosqichga ko'tarildi, davlat ahamiyatiga ega masalalarni hal etish, yangi jamiyat hayotining barcha sohalarini liberallashtirish sari yo'l tutmoqda.

Jinoyatchilik bilan bog'liq bo'lgan turli sabab va sharoitlar, shuningdek, ijtimoiy iqtisodiy muammolar oqibatida paydo bo'ladigan salbiy ijtimoiy- illatlar, daydilik va tilamchilik kabi boshqa turdag'i holatlarni oldini olish asosiy vazifalardan biri bo'lishi lozim. Shu jumladan fuqarolarning ijtimoiy turmush tarzini yaxshilash, ular o'rta sidagi ishsizlikni bartaraf etish, mavjud muaommolarni bartaraf etishda ko'maklashish ham ushbu jamiyatdagi mavjud salbiy ijtimoiy illatlarni bartaraf etishning asosiy usullaridan biri sifatida qaraladi. Fuqarolarni ijtimoiy tomondan muhofaza qilish borasida mamlakatimizda ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirilmoqda.

Muayyan yashash joyiga ega bo'lmagan shaxslar deganda, shaxsini

tasdiqllovchi hujjati, shuningdek biron bir manzilda vaqtincha yoki doimiy propiskasi bo‘lmanan yoxud yashash joyi bo‘yicha hisobda turmagan, g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan 18 yoshdan oshgan shaxslar tushuniladi.

Profilaktika inspektorlari ushbu toifadagi shaxslarni aniqlashda, birinchi navbatda, jamoat birlashmalari va fuqarolardan kelib tushadigan axborotlarga tayanadi, ularning ushbu mazmundagi ariza va xabarlarini ob’ektiv o‘rganib chiqish, ular asosida zaruriy chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirishlari hamda bu holatning asl sabab-sharoitlarini o‘rganishlari maqsadga muvofiqdir.

Profilaktika inspektorlari tomonidan muayyan yashash joyiga ega bo‘lmanan shaxslarni aniqlash jarayonida keng jamoatchilikdan kelib tushadigan axborotlarning ahamiyati yuqori. Ko‘p hollarda ushbu toifadagi shaxslar ko‘p qavatli uylarning yerto‘lasida, cherdak va shunga o‘xhash tashlandiq joylarda yashashini inobatga olsak, bu aholining xavfsizligiga tahdid soladi. Ushbu toifadagi shaxslarning tirikchilik qilish maqsadida o‘g‘irlik va boshqa turdagи jinoyatlarning sodir etishi yoxud sovuq tushgan paytlarda o‘lib qolish holatlari ichki ishlar idoralari xodimlari tomonidan jinoyatni ochishda yoki o‘lgan fuqaroning shaxsni aniqlashda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

Statistik ma’lumotlar tahliliga ko‘ra, mamlakatimizda 2022-yilda ichki ishlar organlari tomonidan 160 mingdan ziyod daydilik va tilanchilik qilib yurgan shaxslar aniqlangan bo‘lib, bu 2021-yilga nisbatan 18,1 foizga ko‘p demakdir. Aniqlangan bu toifa shaxslarning 63,8 foizi bevosita hududiy profilaktika inspektorlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Aniqlangan ushbu shaxslarning 2022-yilda 11,2 foizi, ya’ni 15830 nafari muayyan yashash joyiga ega bo‘lmanan shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlariga joylashtirilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2021-yilga nisbatan 8,1 foizga ko‘proqdir.

Profilaktika (katta) inspektorlari va mahalla-huquq tartibot maskanlari faoliyatini tashkil etish bo‘yicha yo‘riqnomalaridan kelib chiqib, hududiy profilaktika inspektorlari muayyan yashash joyiga ega bo‘lmanan shaxslarni muayyan yashash joyiga ega bo‘lmanan shaxslarni reabilitatsiya etish markaziga, 3 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan voyaga yetmaganlarning shaxsini aniqlash, hayoti, sog‘lig‘ini muhofaza qilish yoki ular tomonidan takroran huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish maqsadida Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markaziga joylashtirish, adashib qolgan, tashlab ketilgan yoki ota-onan qaramog‘idan mahrum etilgan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarni sog‘liqni saqlash muassasalariga topshirish uchun tegishli hujjatlarni rasmiylashtiradi va joylashtirish choralarini ko‘radi.

Muayyan yashash joyiga ega bo‘lmanan shaxslar aniqlanganda profilaktika inspektorlari tomonidan mahalla-huquq tartibot maskanlarida ularning shaxsini aniqlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Muayyan yashash joyiga ega bo‘lмаган fuqarolarning shaxsini aniqlash bo‘yicha ko‘rilgan choralar natija bermasa, profilaktika inspektorlari ularni muayyan yashash joyiga ega bo‘lмаган shaxslarni reabilitatsiya qilish markazlariga topshirish choralarini ko‘radi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda profilaktika inspektorlarining muayyan yashash joyiga ega bo‘lмаган shaxslar bilan ishlash faoliyati jamiyatimizning eng og‘riqli muommolaridan biriga aylangan desak xato qilmagan bo‘lamiz.

Profilaktika inspektorlarining muayyan yashash joyiga ega bo‘lмаган shaxslar bilan ishlash faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish bilan bir qatorda mazkur yo‘nalishda bir qator xato va kamchiliklar ko‘zga tashlanmoqda.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil
2. Ichki ishlar organlari to‘g’risidagi qonun 2016-yil 16- sentabr “Huquqbazarliklar profilaktikasi to‘g’risida”gi qonun
3. 2014-yil 14-may 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27 son “jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g’risida”gi
4. 2021-yil 26-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g’risida”gi farmoni.
6. “Huquqbazarlilar profilaktikasito‘g’risida” giqonun.2014-yil 14-may.
7. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
8. O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g’risigi kodeksi